SIRDARYO VILOYATIDA SUG‘ORILADIGAN DEHQONCHILIK, TASVIRIY SAN’AT VA EKOLOGIK BARQARORLIK O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK

Yorlaqova Malika Ahmad qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: maqolada Sirdaryo viloyatida sug‘oriladigan dehqonchilik tizimi, tasviriy san’at va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tahlil qilinadi. Sug‘orish jarayonlari va mehnat faoliyati inson-tabiat uyg‘unligini shakllantirib, ekologik madaniyat va estetik qadriyatlarni rivojlantiradi. Tasviriy san’at hududiy mehnat va ekologik jarayonlarni badiiy ifodalash orqali yosh avlodda mas’uliyat va mehnatsevarlikni tarbiyalaydi.

Kalit so‘zlar: Sirdaryo viloyati, sug‘oriladigan dehqonchilik, ekologik barqarorlik, tasviriy san’at, mehnat madaniyati.

Sirdaryo viloyati Markaziy Osiyoning sug‘oriladigan dehqonchilikga ixtisoslashgan hududlaridan biri bo‘lib, geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va agrar ishlab chiqarish tizimi bilan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim obyekt hisoblanadi. Hududning tabiiy-geografik sharoiti sug‘oriladigan dehqonchilikka asoslangan iqtisodiy tizimni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi va qishloq xo‘jaligi faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, viloyatning ekologik muhitini tashkil etuvchi suv resurslari, unumdor yer maydonlari va agroekologik omillar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [1:45], balki hudud aholisining mehnat madaniyati, estetik qarashlari va tabiat bilan uyg‘un yashash tamoyillarining shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega [3:1059]. Sug‘orish tizimlari, keng tarmoqli kanallar va ariqlar agrar ishlab chiqarishning asosiy infratuzilmasini tashkil etadi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish bilan bir qatorda, ekologik muvozanatni saqlash va resurslarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi. Sug‘orish jarayonlari bilan bog‘liq mehnat faoliyati hudud aholisi ongida tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik g‘oyalarini shakllantirib, resurslarga nisbatan tejamkor va mas’uliyatli munosabatni rivojlantiradi [3:1060]. Shu bilan birga, suv bilan bog‘liq mehnat jarayonlari xalq og‘zaki ijodi, tasviriy san’at, adabiyot va kundalik madaniyatda ramziy-estetik mazmun kasb etib, hududning madaniy merosida muhim o‘rin egallaydi [5:219]. Masalan, sug‘orilgan dalalar, dehqon mehnati va yerga ishlov berish jarayonlari xalq qo‘shiqlari, rivoyatlar hamda tasviriy san’at asarlarida tabiat va inson faoliyatining uyg‘unligi sifatida talqin etiladi. Shu tarzda, tasviriy san’at hududiy ekologik ongni mustahkamlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi, madaniy-estetik qadriyatlarni boyitadi va aholining ekologik tafakkurini rivojlantiradi [2:43;4:9]. Inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik Sirdaryo viloyatining ekologik barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi va madaniy identifikatsiyasini birlashtiruvchi muhim omilga aylanadi.

Hudud ekologiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilish jarayonida tabiiy resurslar va inson faoliyati o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalar asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Sug‘oriladigan yer maydonlarining ko‘lami, suv resurslaridan foydalanish darajasi, yerlarning meliorativ holati, tuproq sho‘rlanishi hamda shamol eroziyasi kabi tabiiy-geografik ko‘rsatkichlar viloyat ekotizimining asosiy indikatorlari sifatida baholanadi [1:63]. Shu bilan birga, sanoat korxonalari, transport vositalari va qishloq xo‘jaligi texnikalaridan ajraladigan zararli moddalar atmosfera sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [1:63]. Shu sababli ekologik monitoring tizimlarini takomillashtirish, suv va havo sifatini muntazam nazorat qilish hamda chiqindilarni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hududiy ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Global iqlim o‘zgarishlarining mintaqaviy ekotizimlarga ta’siri ham tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Markaziy Osiyoda suv resurslari tanqisligi, yerlarning sho‘rlanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi va ekotizimlarning degradatsiyasi qishloq xo‘jaligi samaradorligiga salbiy ta’sir qiladi [6:1491]. Shu nuqtai nazardan, suv resurslarini boshqarishning zamonaviy tizimlarini joriy etish, melioratsiya tadbirlarini takomillashtirish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo‘llash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi [7:4]. Tadqiqot doirasida ma’naviy-axloqiy yondashuvlar ham o‘rganildi. Insonning tabiatga bo‘lgan munosabati uning madaniyati, axloqiy qarashlari va estetik didi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, agrar hududlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Sirdaryo viloyatida shakllangan mehnat madaniyati ekologik ongning rivojlanishida muhim tarbiyaviy omil sifatida xizmat qiladi, yer va suv resurslariga ehtiyotkor munosabat avloddan-avlodga uzatiladi [5:221]. Fanlararo yondashuv tabiiy-geografik, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni yagona tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi [7:4]. Raqamli texnologiyalar, jumladan GIS, masofadan zondlash va raqamli modellashtirish yer va suv resurslarining holatini aniqlash, ekologik xavflarni prognozlash va qishloq xo‘jaligi faoliyatini ilmiy asosda rejalashtirish imkonini yaratadi [8:175]. Tasviriy san’at hududning ekologik va mehnat jarayonlarini estetik jihatdan aks ettirishda muhim madaniy vosita hisoblanadi. Rassomlar tabiat manzaralari, sug‘oriladigan dalalar va dehqonchilik jarayonlarini badiiy obrazlar orqali ifodalab, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik g‘oyasini targ‘ib qiladi [2:43]. Bu jarayon nafaqat vizual estetik didni rivojlantiradi, balki o‘quvchilar va yosh avlodda tabiatga ehtiyotkor munosabat, ekologik mas’uliyat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni shakllantiradi [4:9]. San’atni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, tanqidiy fikrlash qobiliyati va milliy madaniy merosni anglash imkoniyatlari kengayadi. Innovatsion pedagogik metodlar, interaktiv o‘qitish usullari va multimediya texnologiyalaridan foydalanish ekologik tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Sirdaryo viloyatida ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun kompleks monitoring tizimlari, statistik tahlil metodlari va ilmiy asoslangan rivojlanish loyihalari zarur [1:88]. Melioratsiya dasturlarini rivojlantirish, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik ta’lim tizimini rivojlantirish hududda barqaror rivojlanishning muhim omillari hisoblanadi.

Natijada, Sirdaryo viloyatining tabiiy resurslari, agrar mehnat madaniyati va tasviriy san’at o‘rtasidagi uyg‘unlik hududning ijtimoiy-madaniy barqarorligi, ekologik xavfsizligi va iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini ta’minlaydi. Ushbu uyg‘unlik orqali jamiyatda ekologik mas’uliyat, milliy qadriyatlar va yosh avlodning ijodiy tafakkuri shakllanadi, fanlararo tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalar esa Sirdaryo viloyatini mintaqaviy barqaror rivojlanish modeli sifatida ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rasulov, D. Ekologik madaniyat va zamonaviy san’at. T.: Istiqlol nashriyoti, 2021.
2. Khayrov, R. Z. U. . (2025). The Role of Drawing and Painting in the Training of Future Teachers of Fine Arts. International Journal of Formal Education, 4(7), 41–48. Retrieved from https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/5420.
3. Yorlaqova Malika Ahmad qizi/Jumaboyev Nabi Pardaboyevich. (2025). SIRDARYO VILOYATINING DEHQONCHILIK HAYOTI ZAMONAVIY O‘ZBEK TASVIRIY SAN’ATIDA BADIIY TALQIN ETILISHI. IQRO INDEXING, 18(01), 1058-1061. https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/16470.
4. Alimjanovna Y. S. The Important Significance of Introducing Students to Artists’ Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev) //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 9-9.
5. Pardaboevich, Jumaboyev Nabi. "THE APPLICATION OF EASTERN PHILOSOPHICAL AESTHETIC CONCEPTS IN ARTISTIC EDUCATION AND THEIR INTERPRETATION IN PEDAGOGICAL RESEARCH." PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI 14.01 (2025): 218-222.

6. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION / N. Jumaboyev. – International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – № 4. – P. 1489-94.

7. Imomov Fozil Shakarbek o‘g‘li. (2025, октябрь 24). MUHANDISLIK TA’LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17433530.

8. Sabitovich I. O. AYLANISH SIRTNING UMUMIY VAZIYATDAGI TEKISLIK BILAN KESISHISHIGA DOIR MASALALARNING MAQSADLI BERILISHI //CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. – 2025. – Т. 1. – №. 5. – С. 173-181.